

KO'P TILLI TURIZMDA MADANIY IFODA

Mulaydinov Farxod

Qo'qon universiteti

Po'latova Ruxshonaxon

Qo'qon universiteti, Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ko'p tilli turizm madaniy ifodani boyitadi, chunki u sayyohlarning mahalliy urf-odatlar va tilga nisbatan chuqurroq tushuncha hosil qilishiga, millatlararo muloqotni kuchaytirishga va madaniy xilma-xillikni global tarzda kengaytirishga yordam beradi. Maqsad, ko'p tilli turizmning madaniy ifodani qanday boyitishi, millatlararo muloqotni kuchaytirishi va madaniy xilma-xillikni sezilarli darajada kengaytirishi haqida tushuncha berishdir. Ushbu tezis davomida turizmning madaniyat va til bilan bog'liqligi, ko'p tilli turizmning madaniy tushuncha va hurmatni kuchaytirish, ko'p tilli turizmning global madaniy almashuvdagi ahamiyati va tinchlikni mustahkamlashdagi o'rni haqida ma'lumot beriladi.

Kirish: Ko'p tillik turizm, madaniy ifoda etish, mahalliy urf-odatlar, sayyohlar, madaniy xilma-xillik, global jarayonlar, turizm sohasi, e'tiqodlar, o'zaro tushunish, millatlararo munosabatlar. Turizm nafaqat yangi joylarni ko'rish yoki o'zga millatning taomlari va diqqatga sazovor joylari bilan tanishishdan iborat, balki bu tajriba boshqa millatning tilini, madaniyatini va qadriyatlarini o'zaro o'rganish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Ko'p tillik muloqot esa ushbu jarayonning markazida turadi. Har bir til o'zida muayyan madaniy qadriyatlarni aks ettiradi va sayohatchilar bu tilda so'zlashganida, ular nafaqat tilni, balki bu madaniyatning ichki ruhini ham anglash imkoniga ega bo'ladilar.

Shuningdek, ko'p tilli turizm orqali millatlararo aloqalar mustahkamlanib, odamlar o'zaro muloqotda madaniy tafovutlarni hurmat qilishga va tushunishga intilishadi. Bu esa millatlar o'rtasidagi tushunmovchiliklarni kamaytirib, o'zaro hamkorlik va tinchlikni kuchaytiradi. Shu sababli, ko'p tilli turizm madaniy ifodaning asosiy vositalaridan biri sifatida nafaqat sayyohlar, balki mahalliy aholi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Asosiy qism: *Madaniy tushuncha va hurmatni kuchaytirish:* Ko'p tilli turizm sayyohlarga yangi madaniyat va urf-odatlar bilan yanada chuqurroq tanishish imkonini beradi. Mahalliy tillarni o'rganish yoki ulardan foydalangan holda sayohat qilish, sayyohlarga o'sha madaniyatning qadriyatlari, an'analari va hayot tarzini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Masalan, sayyoh mahalliy til orqali ularning qadimiy e'tiqodlari, san'ati, musiqa va me'morchilik an'analari haqida ko'proq ma'lumot oladi. Bu jarayon nafaqat bilim olishni, balki madaniy xilma-xillikka nisbatan hurmat va qiziqishning ortishini ham ta'minlaydi. Ta'lim muassasalarida madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va turli madaniyatlarni o'rganish orqali talabalarda madaniy tushuncha va hurmatni shakllantirish. Madaniy xilma-xillik, urf-odatlar va qadriyatlar haqida ta'lim berish muhimdir. Va bu orqali chet el bilan hamkorlikda turli dasturlarni olib boorish ham muin ya'ni, xalqaro madaniy almashuv dasturlarini tashkil etish, bu orqali turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro tushunish va hurmatni oshirish. O'quvchilar, talabalarga boshqa madaniyatlarda yashash va ularni o'rganish imkonini berish nazarda tutiladi. Bu faqatgina an'anaviy holatta emas balki onlayn

shaklda ham bo'lishi mumkin. Hammamizga ayonki ijtimoiy tarmoqlar orqali madaniy tushuncha va hurmatni rivojlantirishlari mumkin va Onlayn platformalarda turli madaniyatlar haqida ma'lumotlar almashish va muhokama qilish imkoniyatini yaratadi

Millatlararo muloqotni rivojlantirish: Ko'p tilli turizm turli xalqlar o'rtasidagi madaniy va tilga asoslangan to'siqlarni kamaytiradi. Sayyohlar mahalliy aholining tili va madaniyatini o'rganib, o'zaro aloqalarni yaxshilaydi va samaradorligini oshiradi. Tilni bilish millatlararo muloqotni yanada qulay va samimiy qiladi, bu esa turli madaniyatlar o'rtasidagi tushunmovchiliklarni kamaytiradi. Misol uchun, bir sayyoh biron-bir mamlakatga tashrif buyurganida, mahalliy tilni o'rganishga intilishi mahalliy aholining unga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiradi va u bilan ochiq muloqotni ta'minlaydi. Natijada, sayyoh va mahalliy aholi o'rtasida yanada samimiy va ijobiy munosabatlar rivojlanadi. Millatlararo muloqotni rivojlantirishda ta'lim muhim rol o'ynaydi. Turli tillar va madaniyatlarni o'rganish imkoniyatlarini yaratish, talabalarni madaniy xilma-xillikka qiziqtirish orqali xalqlararo aloqalarni mustahkamlash mumkin. Yana shuni takidlab o'tish joizki turli tillarda muloqot qilish imkoniyatlarini yaratish, chet tillari ta'lim dasturlarini joriy etish, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin. Til o'rganish jarayoni millatlararo muloqotni yanada chuqurlashtiradi. Shuningdek madaniy tadbirlar, festivallar va san'at ko'rgazmalari orqali turli xalqlarning madaniyatlari bilan tanishish va o'zaro hurmatni oshirish. Bu jarayonda san'at, musiqa, raqs va adabiyot kabi madaniyat sohalari muhim o'rin tutadi.

Madaniy xilma-xillikni keng tarzda kengaytirish: Ko'p tilli turizm madaniy xilma-xillikni global darajada kengaytirishning kuchli vositasidir. Bu jarayonda har bir millat o'zining noyob madaniyati, urf-odatlarini va an'alarini namoyon qilishi mumkin. Bunday xilma-xillikni saqlash va o'zaro almashish madaniyatlararo boyish jarayoniga olib keladi. Turistlar ko'p tilli muloqot orqali nafaqat o'z madaniyatlarini boshqalarga taqdim etadi, balki boshqa millatlarning madaniy o'ziga xosliklarini ham qabul qilishadi. Shu bilan birga, turizm mahalliy madaniy resurslarning saqlanishi va rivojlanishiga ham hissa qo'shadi, chunki sayyohlar aynan o'sha madaniy an'analarga qiziqib kelishadi. Mahalliy va xalqaro madaniy tadbirlar, festivallar, ko'rgazmalar va san'at ko'rgazmalarini tashkil etish. Bu tadbirlar turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi va madaniy xilma-xillikni kengaytiradi. Agar madaniy sohada ta'limga nazar tashlaydigan bo'lsak ta'limda madaniy xilma-xillikni oshirish uchun maxsus kurslar va dasturlarni joriy etish, talabalarga boshqa madaniyatlarni o'rganish imkoniyatlarini yaratish shuningdek ham zamonaviy ham milliy qadriyatlar bilan chambarchaslikda yosh avlodlarga ta'lim berish eng foydali ta'lim tizimidan hisoblanadi desak mubologa bo'lmaydi.

Turizm sohasida tilning ahamiyati: Ko'p tilli turizm, turizm sohasi uchun ham muhimdir. Turizm sohasida til bilish sayyohlar va mahalliy aholi o'rtasidagi muloqotni osonlashtiradi. Sayyohlar mahalliy tilni o'rganish orqali mahalliy aholi bilan samimiyroq muloqot qilishlari mumkin. Mehmonxonalar, turistik tashkilotlar, tarjimonlar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ko'p tilli muloqot orqali sayyohlar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Til, biror millatning madaniyatini, urf-odatlarini va qadriyatlarini ifodalaydi. Sayyohlar mahalliy tilni o'rganish orqali o'sha madaniyatning ichki ruhini anglash imkoniyatiga yo'l ochadi. Xodimlarning ko'p tillarda erkin so'zlashishi nafaqat xizmat sifatini oshiradi, balki sayyohlarning o'zlarini qulay

his qilishiga ham yordam beradi. Natijada, turistlar mamlakatga bo'lgan qiziqishini oshiradi va turizm sohasida ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa: Ko'p tilli turizm zamonaviy dunyoda madaniy almashuv va o'zaro tushunish jarayonini boyituvchi va chuqurlashtiruvchi muhim omil hisoblanadi. Bu turizm shakli sayyohlarga yangi joylarni o'rganishdan tashqari, o'sha joyning madaniyati va tilini bevosita his qilish imkoniyatini beradi. Mahalliy til orqali sayyohlar milliy qadriyatlar va urf-odatlarini chuqurroq tushunib, ular bilan yanada chuqurroq bog'lanadilar. Natijada, madaniy xilma-xillikka nisbatan hurmat ortadi, bu esa millatlar o'rtasidagi tushunmovchiliklarni kamaytiradi va o'zaro hurmat va hamkorlikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, ko'p tilli turizm madaniy almashuvni rag'batlantirib, sayyohlik xizmatlari sifatini ham oshiradi. Xorijiy tillarda xizmat ko'rsatuvchi turizm sohasi vakillari sayyohlarga yanada qulay sharoit yaratib, ularning turli madaniyatlarni o'zlashtirish jarayoniga hissa qo'shadi. Bu esa keng miqyosda tinchlik va birdamlikni mustahkamlaydi. Ko'p tilli turizm orqali nafaqat sayyohlar, balki mahalliy aholi ham yangi tajriba orttirib, boshqa madaniyatlar bilan yaqindan tanishadi. Shu sababli, ko'p tilli turizm dunyodagi madaniy boyliklarni saqlash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi va madaniy uyg'unlikka xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hall, Edward T. (1976). *Beyond Culture*. Garden City, NY: Anchor Books.
2. Cohen, Erik (1972). *Towards a Sociology of International Tourism*. *Social Research*, 39(1), 164-182.
3. MacCannell, Dean (1973). *Staged Authenticity: Arrangements of Social Space in Tourist Settings*. *American Sociological Review*, 79(3), 589-603.
4. Baker, M. (2008). *The Cultural Tourism Industry: Authenticity, Culture and the Tourist Experience*. *International Journal of Tourism Research*, 10(1), 35-49.
5. *Cultural Tourism: Global and Local Perspectives* (2015). *Journal of Tourism and Cultural Change*, 13(1)
6. Mulaydinov, F. M. (2022). *Sanoat korxonalarini va biznes faoliyatida integratsion axborot tizimlari*. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 5, 30-35.
7. Mulaydinov, F., & Ruxshonaxon, P. L. (2024). *TILLARNI O'RGANISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI*. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 11, 105-107.
8. Murotovich, M. F. (2023). *ZAMONAVIY YOSHLAR QADRIYATLARI VA JAMIYAT BOSHQARUVI*. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 121-127.
9. Mulaydinov, F. M. (2022). *MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI*. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING*, 1(1).
10. Mulaydinov, F., & Solidjonov, D. (2024). *THE DIGITAL LITERACY PRACTICES OF A NOVICE ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE TEACHER WHEN WRITING RESEARCH ARTICLES FOR PUBLICATION*. *Kokand University Research Base*, 376-382.